

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI

*Tursunova Saida Isakovna*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

*Tel: +998915886422*

*Donayeva Ashuroy Ollanazar qizi*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Tel: +998 90 377 66 17*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi janrining rivojlanish tarixi. O'quvchilarning nutqiy malakasini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanish. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodi orqali o'quvchilar tafakkurini o'stirish, ma'naviy dunyosini shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga boshlang'ich sinf darslik kitoblarida keltirilgan ertak, doston, maqol, topishmoq, masal kabi janrlarni milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz bilan uyg'unlashtirilgan holda yosh avlodga o'rgatishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** Milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, ertak topishmoq, maqol, doston, masal, tez aytish, janr, tarbiya, qo'shiq, lapar, askiya, lof.

Mustaqil O'zbekistonda milliy qadriyatlar tiklanayotgan hozirgi davrda xalq yaratgan merosini yosh avlod ongi shuurida tasavvur hosil qilish umuminsoniy qadriyatlarni har tomonlama o'rgatish va tatbiq etish davr talabi. Qolaversa, har bir shaxsning zimmasidagi mas'uliyati hisoblanadi. Ana shu mas'uliyatni his qilgan inson kelajak avlodimizning yangi fikrlaydigan, izlanuvchan, mehr oqibatli, yurtsevar, elparvar egalarini yetishtirishda, tarbiyalashda o'z hissasini qo'shadi. Buyuk allomalarimizning ibratimiz hayotlari, Vatan, xalq uchun qilgan xizmatlari haqida, aziz avliyolarning ilmi urfoni haqida, mamlakat osoyishtaligi, tinchligi, xalqning or nomusi uchun kurashgan sarkardalar haqida, qolaversa, Vatanning har bir go'shasi xususida ota bobolarimiz yaratgan rivoyatlar o'zining ilmiy badiiy ahamiyati jihatidan qimmatlidir. Rivoyatlar mavzu doirasi nuqtai nazaridan asoslanib, tahlillar, misollar bilan yoritilgan. Rivoyatlarni izchil o'rganish va tatbiq etish yosh avlod kamoloti uchun muhim manba hisoblanadi. Latifa va topishmoqlar esa hozirjavoblikda, tez aytishlar so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda, maqollar so'zga husn berishda, fikrni yorqin, ta'sirchan qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki badiiy adabiyotning ikki shakli: og'zaki va yozma turi mavjud. Dastlab og'zaki adabiyot so'ngra, XIX asrga kelib yozma adabiyot paydo bo'lgan. Og'zaki adabiyotning bir necha janrlari mavjud. Doston, ertak, topishmoq, qo'shiq, lapar, lof, askiya kabi o'ndan ziyod turlari bor. XX asrning 50-yillariga qadar to'y hashamlarida baxshilar tomonidan "Alpomish" "Go'ro'g'li" "Ravshan va Zulxumor" kabi dostonlar sevib ijro etilgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li kabi mashhur baxshilarimiz tomonidan kuylangan xalq dostonlari keyinchalik yozma holda kitobxonlarga havola etilgan. Ko'pchilligimiz "Avazxon" "Yodgor" "Kuntug'mish" "Ravshan va Zulxumor" kabi dostonlarni o'qiganmiz.

Og'zaki ijodining ikkinchi janri - **QO'SHIQ**. Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devoni Lug'ati Turk" kitobida dastlab xalq tomonidan aytilgan mavsum, marosim, mehnat qoshiqlari xususida ma'lumot berib o'tadi. Yozma adabiyot shakllangach, qo'shiq san'ati juda tez taraqqiy etdi

XX asrning 40-yillarida Halima Nosirova, Tamaraxonim, Gavharbegim kabi zabardast qo'shiqchilar yetishib chiqqan bo'lsa 80-yillarga kelib Munojat Yo'lchieva, Sherali Jo'rayev, Botir Zokirov, Og'abek Zokirov kabi talantli ijodkorlar qo'shiq san'atining rivojiga munosib hissa qo'shganlar.

**MAQOL** - xalq og'zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri. Maqol mavzu jihatidan rang-barang. Unda vatanparvarlik, vafodorlik, do'stga sadoqat, yovga nafrat kabi g'oyalar tarannum etilgan. Biz "Yer haydasangiz kuz hayda, kuz haydasang yuz hayda", Mahnat mehnatning tagi rohat, "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik", "Mehnatning ziynatini" kabi mahnatsevarlikni targ'ib etuvchi maqollarni tag zamirida qanday ma'nolar yotganini bir o'qishda bilsak bo'ladi. Bizni ota-bobolarimiz shunday kichik parchalarga qanchalik katta ibratli fikrlarni jamlagani juda ham qiziq. Shu bilan birga, "O'z uying o'lan to'shaging", "Bulbul chamanni sevar, odam vatanni", "Vatanni sevmok iymondandir", "Vatan ostonadan boshlanadi" singari vatanni ulug'lovchi hikmatlar hamda "Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib", "Do'stsiz boshim tuzsiz oshim", "Do'st kulfatda sinaladi", "Do'st boshga boqar, dushman oyoqqa"[1] singari do'stlik to'g'risidagi maqollarni yaxshi bilamiz. Maqollar pand-nasihatlar, tarbiyaviy suhbatlarda o'git sifatida ham keladi. Shuning uchun uni "Otalar so'zi" ham deyishadi. Buning boisi, har bir maqol ota-bobolarimiz tomonidan yaratilib, bir necha mingyilliklar davomida sayqal topib kelayotgani, yaxshilik, ezgu ishlarga undaydigan bebaho ma'naviy boyligimiz ekanidir. Maqolda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo'lib, unda ibratli fikr aytiladi. Bu fikr rad etib bo'lmaydigan hukm shaklida keltiriladi.

Xalq og'zaki ijodining eng ommabop janrlaridan biri - **ERTAK**. "Ertaklar yaxshilikka yetaklar" deb bejizga aytilmagan. Barcha ertaklar bolajonlarni ezgulikka, adolatli, to'g'ri so'zli, el-yurt tashvishlari uchun qayg'uradigan, o'zgalarga mehribon hamda sahovatli bo'lishga undaydi. Jumladan, hozirgi kunda ham bolajonlarimiz

tomonidan sevib tomosha qilinadigan "Qimmat va Zumrad", "Biroq", "Rostgo'y bola", "Uch o'g'il", "Susambil", "Uch og'a-ini botirlar" kabi ertaklarimiz yo'q emas. Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati katta. Ertaklarda voqealar asosan mo'jizali tarzda ifodalanadi.

Binobarin, mo'jiza yoki fantaziya voqea va hodisalarni hayot bilan bog'lab haqiqat, ozodlik, to'g'rilik, odamiylik kabi didaktik g'oyalarni tashviq etadi, syujet rivojiga kuch bag'ishlaydi, tinglovchi e'tiborini o'ziga jalb qilib ajoyibotlar olamiga olib kiradi, shirin tuyg'ular dunyosiga g'arq etadi. Ertaklarni umumlashtirgan holda quyidagicha ta'rif e'tirof etilgan. "Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, fantastik hamda hayotiy uydirmalar asosida qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar - ertak deb ataladi [2].

**MAQOL va TOPISHMOQ** - bu ikki tushuncha inson tafakkurining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Maqollar insonni odob-axloqqa o'rgatsa, topishmoqlar uni mantiqiy fikrlashga, topqirlikka, hozirjavoblikka undaydi. Maqol inson nutqini bezaydi (Xalqimizda "So'z ko'rki maqol" deb bejizga aytilmagan) uning ta'sir kuchini oshiradi.

Ma'lumki, ko'plab maqollardagi yana bir xususiyat ularda so'zlarning qofiyadosh bo'lib kelishidir. Masalan, "Yuz ko'rki soqol, so'z ko'rki maqol", "Aql- yoshdan, odob-boshdan ". Shu xislati bilan maqollar topishmoqlarga o'xshab ketadi. "Bir parcha patir, olamga tatir "(oy) topishmog'idagi "patir" va "tatir" so'zlaridek, maqoldagi "yoshdan" va "boshdan " so'zlari bir-biriga qofiyadoshdir . Biroq, bu o'xshashlik tashqi shaklda ko'rinadi. Mazmunan ular o'zida boshqa-boshqa ma'nolarni tashiydi. Maqol ibratli fikrni anglatga, topishmoq kishini jumboqda yashiringan ma'noni topishga undaydi, idrokini sinaydi.

**RIVOYATLAR** - mazmun yo'nalishiga ko'ra tarixiy voqealar, ularda ishtirok etgan shaxslar jasorati yoki xiyonati asosida yoki yurtimiz viloyatlaridagi o'rin-joylarning nomlanishini izohlash maqsadida yaratilgan turlarga bo'linadi. Tarixiy rivoyatlarda To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur kabi yurti ozodligi va mustaqilligi uchun jonini qurbon qilgan el farzandlari mardligi, shu bilan birga o'zining o'tkinchi hirsiy nafsini yo'lida vataniga xiyonat qilgan Dalvarzin, Guldursunga o'xshagan xiyonatkor shaxslar kirdikorlari hikoya qilinadi. Mard , jasurlarning ishlari ham, xoinlarning xiyonati ham unutilmaydi. O'zbekiston - dunyoda o'zining ilmiy kashfiyotlari , fan rivojiga qo'shgan hissalarini, badiiy ijodda yaratgan asarlari bilan mashhur farzandlar yurti. Imom al-Buxoriy, Beruniy, ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Behzod, Boburdek ulug' insonlar nomini sharaflovchi o'nlab rivoyatlar xalq qalbida saqlanib kelmoqda. Masalan, 3-sinf o'qish darsligida "Ibn Sinoning shagirdlari" rivoyatida bilimdonligi va donoligi , " Bobur va kabutar" rivoyatida Boburning ziyrakligi alohida ta'kidlab ko'rsatilgan.



**MASAL** - majoziy xarakterdagi qisqa hikoyacha bo'lib, nasriy yoki she'riy shaklda yoziladi . Uning asosiy qahramonlari turli hayvonlar, narsa - buyumlardan iborat . Bular ramziy - majoziy ma'noda qo'llanilib, insonlar fe'l - atvoridagi turli xususiyatlarga ishora sifatida keltiriladi. Masalning asosiy jihati shundaki,u to'liq ma'noda tarbiyaviy maqsadga yo'naltiriladi. Ko'hna Sharq adabiyotida ham majoziy shaklda ya'ni turli hayvonlar tilidan tarbiyaviy ahamiyatga molik hikoyachalar keltirish qadim hind adabiyotining nodir namunalari bo'lgan "Kalila va Dimna" kabi asarlar tarkibida uchraydi. Masalchilikning eng yaxshi namunalari o'zbek adabiyotida ham mavjud. Majoziy shakldagi ibratli hikoyalarning sara namunalari Alisher Navoiyning " Hamda" asaridagi birinchi doston "Hayrat ul - Abror"da va maxsus shu yo'nalishda yaratilgan "Lison ut-tayr" dostonida uchrashini alohida aytib o'tish lozim. Shu bilan birga XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida yashab o'tgan Muhammad Sharif Gulxaniy ham "Zarbulmasal" asari bilan o'zbek adabiyotida masalchilik janriga o'zining hissasini qo'shgan. Masalan, Gulxaniyning "Yavvoyi echkilar va cho'pon", " Kiyik bilan tokzor", " Bo'ri bilan laylak ", "Burgut,zaxcha va cho'pon ",

"Ustiga tuz ortirilgan eshak ", "Eshak bilan baqalar" kabi masalari bor.

Shunday qilib, o'zbek xalqining butun fazilati,falsafasi, dunyoqarashi,donaligi, oliy himmatliligi,turli hayotiy vaziyatlarga munosabati - maqollarda ertaklarda hamda masallarda o'z aksini topadi. Insondagi mehnatga muhabbat, ishq tuyg'ulari qo'shiqlarda eng go'zal ichki kechinmalar sifatida ifodalangan. Ertaklarda xalqimizning eng oliy orzu - istaklari namoyon bo'ladi. Ular bilan tanishgan yosh avlod o'zbek uchun, vatan, oila, xalq, mehnat,ilm, g'urur naqadar muqaddas tushunchalar ekanligini anglab yetadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev . Sh. M." Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" B 14 " O'zbekiston" Toshkent 2016.
2. Mamasoli Jumaboyev" Bolalar adabiyoti va folklor " darslik " O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti ", Toshkent - 2006.
3. Fuzailov . S. Xudayberganov. M. Yo'ldosheva. Sh. 3 - sinf " O'qish kitobi" darsligi B 128-139 "O'qituvchi " Toshkent 2018
4. Ismailovich. A. S. PROBLEMS OF IMPROVING PSYCHOLOGY OF HEALTHY LIFESTYLE OF UZBEK FAMILY // Scientific reports of Bukhara State University. - 2020. - T. 4. - N•1. - C. 313 - 318.Saidov. A. SOCIAL PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE FORMATION OF A CULTURE OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY.// Science and innovation. - 2022. - T. 1. - N.B7. - C . 867 - 871.
5. Ismatova, N., & Tursunova , S. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH,

- TILSHUNOSLIK USLUBIY MUAMMO SIFATIDA. *Interpretation and Researches*, 2(1). Извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/965>
6. Hikmatov, I., & Tursunova, S. (2023). BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINI MA‘NAVIY-MA‘RIFIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING IMKONIYATLARI. *Interpretation and Researches*, 2(1). Извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1013>
7. Allaberganova, Y., & Tursunova, S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH. *Interpretation and Researches*, 2(1). Извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/937>
8. Tursunova, S., & Shoyimova, G. (2023). TALABLARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(5 Part 2), 176–178. Извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/yota/article/view/16097>
9. Bahodirovna, C. Z., & Tursunova, S. I. (2023). ON THE EXAMPLE OF RUSSIAN EXPERIENCE IN CREATING PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. *International Journal of Pedagogics*, 3(04), 1-11.
10. Sultanova, T., & Tursunova, S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Interpretation and researches*, 2(1).